

**ISSN:3060-4567 Modern education and development**  
**QASHQADARYO VILOYATI AGROSANOAT MAJMUASI**  
**RIVOJINI IQTISODIY TAHLIL QILISH**

**Sultonov Shuxrat Adxamovich** - *Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
“Geologiya va konchilik ishi” kafedrasи dotsenti,  
[sultonovshuxrat87@gmail.com](mailto:sultonovshuxrat87@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada Qashqadaryo viloyati agrosanoat majmuasi rivoji iqtisodiy tahlil qilingan bo‘lib. O‘zbekiston Respublikasidagi viloyatning agrarsanoatdagi ulushi, undagi o‘ziga xos o‘rni, faoliyat ko‘rsatayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash ko‘rsatgichlarini iqtisodiy jihatlari atroflicha muhokama qilingan va tegishli xuloasalar qilingan.

**Kalit so‘zlar:** agrosanoat, institutsional, strategik, prognoz-tahlil, xo‘jalik yuritish, yaylov, pichanzor, qishloq sanoati, infrastruktura, mehnat resurslari.

**ECONOMIC ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE  
AGRO-INDUSTRIAL COMPLEX OF KASHKADARYA REGION**

**Sultanov Shukhrat Adkhamovich** - Associate Professor of the  
*Department of Geology and Mining, Karshi Engineering Economics Institute  
[sultonovshuxrat87@gmail.com](mailto:sultonovshuxrat87@gmail.com)*

**Abstract.** The article analyzes the economic development of the agro-industrial complex of Kashkadarya region. The share of the region in the agrarian industry in the Republic of Uzbekistan, its unique place in it, the economic aspects of the indicators of production and processing of agricultural products were discussed in detail and appropriate conclusions were drawn.

**Key words:** agro-industry, institutional, strategic, forecast-analytical, management, pasture, hay field, rural industry, infrastructure, labor resources.

mamlakatlarida agrar islohotlarni o‘tkazish zarurati tarmoq tarkibining yangi makroiqtisodiy vaziyatga mos emasligi, aksariyat mamlakatlarda uning yuqori darajada dotatsiyalanganligi, ichki va tashqi bozorlarda qishloq xo‘jalik maxsulotlarining raqobatbardoshligini pasayishi bilan izohlanadi. Agrar tarmoqni isloh etish strategiyasi uning samaradorligi va mehnat unumdarligini rejali iqtisodiyotning institutsional va tashkiliy tuzilmalarini qayta qurish orqali amalga oshirishga qaratilgan. MDH mamlakatlaridagi agrar islohotlar maqsadlari, ularning samaradorligi va o‘tkazish sur’atlari bozor institutlarining va mintaqalardagi tabiiy-iqtisodiy va ijtimoiy omillariga bog‘liq holda jiddiy farqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlanganlaridek, “Qishloq xo‘jaligining o‘zida keng ko‘lamli o‘zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda. Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo‘lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko‘paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlashga zamin tug‘dirdi, kerak bo‘lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda”.

Shu bilan birga, agrar tarmoqda bozor islohotlarini yanada chuqur-lashtirish hududning agroresurs salohiyatidan samarali foydalanish va iqtisodiyotni erkinlashtirishni hisobga olgan holda, agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Mamlakat mintaqasining agrosanoat ishlab chiqarishini strategik rivojlantirish amaliyotini o‘rganish prognoz-tahliliy ishlarga yetarlicha e’tibor berilmayotganidan dalolat beradi. Bu birinchi galda mintaqalar va ularning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik tahlil qilish ishlari ilmiy jihatdan yetarli darajada o‘rganilmayotganligi bilan belgilanadi. Bunday yondashuv hududlar rivojlanishi ichki qonuniyatlarini aniqlash,

mintaqaning mahalliy va tashqi omillari bilan belgilanadigan boshlang‘ich shartsharoitlari va darajasini baholashni ko‘zda tutib, bu o‘z navbatida, tahliliy ishlarga strategik tus beradi.

Bu holat, agrosanoat ishlab chiqarishining mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari nazariy jihatdan yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan, agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish va uni hududlar iqtisodiy salohiyatini qiyosiy baholash asosida amalga oshirish mexanizmining uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib hisoblanadi..

***ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА/METHODS).*** Mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy va uslubiy asoslari E.B.Alayev, A.G.Granberg, U.Izzard, V.V.Kistanov, T.G.Morozova, A.S.Novoselev, K. Tyunen, X.Armstrong, R.I. Shniper kabi xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish muammolari M.Abdusalyamov, Z.M.Akromov, A.B.Ota-Mirzayev, T.M.Ahmedov, B.Ro‘zmetov, A.S.Soliyev, Sh.B.Imomov, A.M.Qodirov tomonidan tadqiq etilgan, O.Abdullayev, A.Jo‘rayev, F.Nazarova, I.Murodov, E.Trushin, Q.N.Abirqulov, A.M.Sodiqov, K.A.Hasanjonov, N.S.Xushmatov, R.X.Husanov, U.X.Nig‘matjonov, T.Farmonov, F.T.Egamberdiyev, K.Choriyev va boshqalar esa, xo‘jalik yuritishning bozor usullari va agrosanoat majmuasi rivojlanishini tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini o‘rganishgan. Mazkur ishlarda agrar munosabatlarni rivojlantirish muammolari, xo‘jalik yuritishning turli shakllaridan samarali foydalanish, boshqarishni takomillashtirish, narxni shakllantirish, yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari ochib berilgan.

***MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).*** Agrar siyosatni amalga oshirish natijasida agrosanoat majmuasida xo‘jalik yuritishning nodavlat shakllari qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlar), uyushmalar, agrofirmalar, dehqon va fermer xo‘jaliklari va boshqalar rivojlandi. Qashqadaryo viloyati

qishloq xo‘jaligining rivojlanishini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda ekin maydonlarining hajmi deyarli barqarorlashdi (1-jadval).

**1-jadval**

**Qashqadaryo viloyatidagi ekin maydonlarining tarkibi**

**(2010-2023-yillar o‘rtacha)**

Tumanlar	Umumi y ekin maydo ni	Jumladan qishloq xo‘jaligi ekinlari bo‘yicha:						
		Paxta xomashy osi	Don ekinlari	Shund an g‘alla	Sabza - votlar	Kartosh ka	Mevala r	Uzu m
G‘uzor	100	32,4	60,1	53,5	2,0	0,0	0,8	0,4
Dehqonob od	100	0,0	94,1	77,9	0,1	0,6	2,1	0,2
Qarshi	100	39,9	36,8	36,2	2,6	0,4	2,6	1,1
Koson	100	50,0	43,8	42,7	1,4	0,1	1,4	0,3
Kamashi	100	25,5	66,4	57,5	3,5	0,4	0,5	0,2
Kitob	100	23,0	48,8	37,1	5,7	3,4	6,9	18,2
Mirishkor	100	46,3	48,8	46,7	0,6	0,3	0,7	0,4
Muborak	100	44,2	46,8	45,3	1,1	0,1	1,7	1,1
Nishon	100	49,3	47,4	46,8	0,6	0,1	1,0	0,8
Kasbi	100	52,0	34,7	33,7	0,9	0,1	1,2	0,5
Chiroqchi	100	16,9	77,3	60,0	1,8	0,9	0,8	1,2
Shahrisabz	100	34,3	36,3	32,6	7,2	4,7	7,5	3,7
Yakkabog‘	100	31,8	48,6	44,1	4,2	2,4	2,9	4,2
Qarshi sh.	100	0,0	56,6	41,4	19,0	0,3	14,5	5,6
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>100</b>	<b>35,7</b>	<b>53,5</b>	<b>47,6</b>	<b>2,1</b>	<b>0,8</b>	<b>1,8</b>	<b>1,6</b>

Ekin maydonlari tarkibida 2010-2023 yillarda donli ekinlar va paxta xomashyosining ulushi tegishlichcha 53,5% va 35,7% ni, umumi hisobda esa ekin maydonlarning deyarli 90% ini tashkil qildi.

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining hududiy tarkibi tumanlar kesimida tahlil qilingan va guruhlashdirilgan:

8 foiz va undan yuqori – Chiroqchi, Kasbi, Nishon, Mirishkor, Qamashi, Koson va Qarshi tumanlari;

8 foizdan kam – Dehqonobod, G‘uzor, Shahrисabz, Muborak, Kitob tumanlari va Qarshi shahri (1-jadval).

Tumanlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha tabaqalanishi quyidagicha bo‘ldi:

Karshi, Koson, Mirishkor, Nishon, Kasbi tumanlarida paxta xomashyosi va g‘alla yetishtirish 50 dan 70 foizgachani tashkil etadi;

G‘uzor, Qamashi, Muborak, Chiroqchi tumanlarida paxta xomashyosi va g‘alla yetishtirish 30 dan 50 foizgachani tashkil etadi.

Yakkabog‘, Kitob, Shahrисabz va Dehqonobod tumanlari asosan agrar tarmoqning oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2010-2023 yillarda, ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Misol uchun, go‘sht ishlab chiqarish 111,1%, sut 110,3%, sabzavot 122,6%, meva 127,3%, kartoshka 116,6% va poliz mahsulotlari 117,6% oshgan.

Viloyatda sut va go‘sht ishlab chiqarishni ko‘paytirish, eng avvalo, qoramolchilikni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lib, aholining o‘sib borayotgan talabi hamda viloyat qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ifodalaniladi. Unda ixtisoslashuvning asosiy yo‘nalishi qoramolchilik bilan oqilona tarzda qo‘shib olib boriluvchi paxtachilik hisoblanadi. Shuningdek, aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda qo‘ychilikni rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida qishloq xo‘jaligini isloh qilish ishlab chiqarishning yalpi ko‘rsatkichlarini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bular quyidagilarga erishishda namoyon bo‘lishi darkor:

- ishlab chiqarish rentabelligini oshirish va qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy ahvolini yaxshilash;
- ko‘p jihatdan texnik bazani mukammallashtirish bilan belgilanadigan mehnat unumdorligini o‘stirish;
- ishlab chiqariladigan mahsulot turlari va uni sotish bozorlarini kengaytirish.


Qashqadaryo viloyatining tabiiy sharoiti qishloq xo‘jalik tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishga turlicha ta’sir qiladi. Masalan, bu yerda vegetatsiya davrining nisbatan uzoq davom etishi o‘rtta va ingichka tolali paxta yetishtirishga, bog‘dorchilik va uzumchilikdan yaxshi hosil olishga sharoit yaratadi.

Ta’kidlash lozimki, qishloq xo‘jalik tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish geografik omillarning o‘ziga xos o‘rni bor. Xususan, paxtachilik, donchilik, poliz va sabzavotchilikning hududiy tashkil etilishida iqlim, suv va tuproq resurslarining o‘rni birlamchi bo‘lsa, yaylov chorvachiligi, bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlanishida relyef va o‘simlik qoplami ahamiyatlidir.

Har qanday mintaqada agroiqtisodiyotning rivojlanishi yer fondi bilan ta’milanganlik darajasiga bog‘liq holda kechadi. Chunki, mavjud yer fondi tarkibida qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yerlarning, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlarning qo‘pligi, tabiiyki, bu yerda paxtachilik, poliz va sabzavotchilik kabi sohalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer fondi 2856,8 ming getktarni tashkil etadi. Jami qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan yer maydonlari 2461,7 ming gettar, shundan haydaladigani 677,3 ming ga, yaylov va pichanzorlar 1315,2 ming ga, meva, uzum va ko‘p yillik ekin maydonlari 32,8 ming ga va aholi tomorqa yerlar 73,8 ming gettar.

Tahlil qilingan ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Mirishkor, Chiroqchi, Muborak, G‘uzor, Qamashi va Nishon tumanlari katta yer fondiga ega bo‘lib, ushbu tumanlar maydoni birgalikda jami viloyat maydonining 57 foizini, qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan yerlarning 60 foizini va yaylovlarning 70 foizini egallaydi.



1-rasm. Ma'lumotlar Qashqadaryo viloyati yer resurslari boshqarmasidan olingan.

Ayni vaqtda, viloyatning tekislik mintaqasida joylashgan Kasbi, Koson va Qarshi tumanlari yer fondi tarkibida haydaladigan yerlar hissasi yuqori. Jumladan, bunday yerlar Kasbi tumani umumiylarni fondining 65 %, Kosonda 45 %, Qarshi tumanida 50 foizni tashkil etadi. Ularning maydoni esa viloyat maydonining atigi 12,3 foiziga teng. Mazkur tumanlar 1960 yillarda Qarshi cho'lini o'zlashtirilishi natijasida tashkil etilgan bo'lib, ular viloyatning asosiy paxta va g'alla mahsulotlarini yetkazib beruvchi rayonidir.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida dehqonchilik tarmog'i chorvachilikka nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Masalan, 2013 yilda viloyat qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlar hajmida dehqonchilik tarmog'inining hissasi 55,2 foizni tashkil qilgan. Viloyati qishloq xo'jaligi tarmoqlari tarkibida bozor iqtisodiyoti sharoitlarini hisobga olgan holda biroz o'zgarishlar amlga oshirilmoqda. Bu holat ayniqsa, paxtachilik va g'allachilik tarmoqlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

2-jadval

### **Ekin ekilgan yerlar maydoni**

	<b>2005 yil</b>	<b>2012 yil</b>	<b>2017 yil</b>	<b>2023 yil</b>
Jami qishloq xo‘jaligi ekinlar yerlari	671.7	675.1	675.8	677.3
shundan:				
Sug‘oriladigan yerlar	416.6	419.4	419.9	421.3
Shu jumladan:				
Paxta maydonlari	173.8	188.8	173.2	174.8
G‘alla maydonlari	258.8	243.4	247.8	205.8
Shundan:				

Jadval ma’lumotlari Qashqadaryo viloyati yer resurslari boshqarmasidan olingan.

2-jadval va 1-rasm ma’lumotlari ko‘rsatishicha so‘nggi yillarda viloyat qishloq xo‘jaligi donli ekinlar, xususan bug‘doy maydonlari ortib bormoqda. Bu bejiz emas, chunki mustaqillikning dastlabki yillarida respublika don mustaqilligiga erishish dasturining amalga oshirilishi bug‘doy ekiladigan maydonlarning kengayishiga olib keldi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Qashqadaryo viloyatida dehqon va fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda o‘ziga xos muhim o‘rin egallaydi. Mazkur xo‘jaliklar faoliyati uchun tashkiliy-huquqiy asoslarning yaratilishi natijasida viloyatda yaratilayotgan yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotlarining deyarli 100 foizga yaqini shu xo‘jaliklar tomonidang ishlab chiqarilmoqda.

Dehqonchilikda yaratilayotgan yalpi mahsulotning 2000 yilda 7 foizi, 2023 yilda 99 foizi fermer xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelgan. Dehqonchilikda dehqon xo‘jaliklarining ulushi juda past, buning asosiy sabab sababi qishloq xo‘jaligining asosiy ekinlari – paxta va g‘allaning ushbu tarmoqda yetishtirilmasligidir. Dehqon xo‘jaliklarining asosan chorvachilik mahsulotlari tayyorlashda ahamiyati katta.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining shakllanishi va uning chuqurlashib borishi uzoq tarixiy jarayon hisoblanib, u ilmiy texnikanинг taraqqiy etishiga asoslanadi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tabiiy-

iqtisodiy salohiyat va har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari, shartsharoitlaridan to‘g‘ri foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish – bu xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini, talab va taklifdan kelib chiqqan holda, mavjud resurslardan samarali foydalanib, ma’lum turdagи mahsulotlarni yetishtirish yoki ishlab chiqarishga yo‘naltirishdan iborat.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).** Qishloq xo‘jaligi tug‘risida yuqorida keltirilgan fikrlar bu sohaning keng tarmoqli ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga qishloq xo‘jaligi oldida qator muammolar ham mavjud. Ularni hal qilish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega. Ushbu muammolar jumlasiga sug‘oriladigan yerlar unumдорligini oshirish, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish, o‘simliklarda uchraydigan kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashni kuchaytirish kiradi. Ayni vaqtida qishloq joylarda mehnat resurslaridan samarali foydanish, qishloq sanoati va infrastrukturasini rivojlantirish ham Respublika agrar siyosati doirasida dolzarb masaladir.

Shunday qilib, viloyatning yer va tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- nisbatan kam kapital kiritmalar evaziga ishlab chiqarish hajmlarini sezilarli oshirish;
- viloyat agrosanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’atlarini hamda uning yalpi mintaqaviy mahsulotdagi ulushini oshirish;
- mehnat resurslarining oqilona bandligini ta’minlash hamda aholining real daromadlarini oshirish muammosini sezilarli darajada hal qilish;
- sug‘orilmaydigan zona salohiyatidan keng foydalanishni ta’minlash, bu esa suv resurslarining yetishmasligi va sug‘oriladigan yer maydonlarini kengaytirish imkoniyatining cheklanganligi sharoitida ayniqsa muhimdir.

Agrar islohotlarning muhim maqsadi tovar ishlab chiqaruvchilarning tashabbuskorligi va omilkorligiga tayanadigan samarali va raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi tizimini shakllantirishdir. Mahalliy hokimiyat organlari va xususiy sektorning rivojlanishi, ularning bandlikni oshirish borasidagi

hamkorligining samarali mexanizmlaridan biri – qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasidir. Qishloq hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida tadqiqotda Muborak va Shahrисабз tumanlarida kooperativlarni rivojlantirish zarurati asoslab beriladi, bu yerlarda meva, uzum, sabzavot, go‘sht, jun va boshqa qishloq xo‘jaligi resurslarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo bazasi mavjud.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ  
ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES).**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022 - yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma’lumotlari.
4. Faizullaev M.A., Nurmatov A.U., Khujakulov S.U. Economic geographical characteristics of the development of industrial networks of Kashadarya region // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. P. 125-134.
5. Файзуллаев.М.А., [Жанубий Ўзбекистонда аграр-индустрисал циклнинг шаклланиши ва ривожланиши](#). Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 2015, 46, 103-105.
6. Faizullaev M.A., [Characteristics of agriculture in Uzbekistan in the years of independence](#). European science review, 2015, 3 (4), 67-69.
7. Файзуллаев.М.А., [Жанубий Ўзбекистон қишлоқ хўжалигига ер ресурсларидан фойдаланишнинг ички тафовутлари](#). 2015, ЎзМУ хабарлари 3 (1), 156-160.
8. Navotova D.I. Main principles for determining the efficiency of the use of land resources// Proceedings of International Educators Conference 2023. Italiya. Vol.2 No. 2 (2023) 25th February, 2023 P. 443-447.
9. Navotova D.I. Possibilities of applying world experience in efficientuse of irrigatedlands of the republic of Uzbekistan// International conference onscientific research in natural and social sciences. Canadaconference. Volume 2. Issue 2. February 5th 2023. P. 182-186.

10. Navotova D.I. Internal Differences In The Use Of Land Resources In The Agriculture Of Kashkadarya Region//Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16. Belgiya. 2023.P.100-104.
11. Султонов Ш.А., Навотова Д. И., Алиева Д. И. Қашқадарё вилояти минерал ресурслари ва улардан фойдаланишнинг географик хусусиятлари //Science and education in the modern world: challenges of the XXI century" Nur-Sultan, Kazakhstan. – 2020. – С. 12-15.
12. Sultonov Sh.A., Navotova D.I, O‘zbekistonda rangli metallarning geografik tarqalishi va foydalanish xususiyatlari. Экономика и социум. -№2(117)-1 2024, 682-690 betlar, 2024-yil. <http://www.iupr.ru> , ISSN 2225-1545.